

**BO`LAJAK BOSHLANG`ICH SINIF O`QITUVCHILARINI KASB TANLASH ISHIGA TAYYORLASHNING MAZMUNI VA METODLARI**

Yusufova Shahzoda Behzod qizi

Boshlang`ich ta`lim va gumanitar fanlar kafedrası 1-kurs magistranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada bo`ljak boshlang`ich sinf o`qituvchilarini kasb tanlash ishiga tayyorlashning mazmuni va metodlari haqida qisqacha yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** kasb-hunar, kasblar olami bilan tanishtirish, kasbga yo`naltirish, pedagogik faoliyat, pedagogik metodlar.


O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning hozirgi zamonaviy bosqichi talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Professional ta`lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi Farmonni qabul qildi. Mazkur Farmon mamlakatimizda professional ta`lim tizimini ilg`or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang`ich, o`rta va o`rta maxsus professional ta`lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilishga qaratilgan.

Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi ham mamlakatimizda yashayotgan fuqarolarimiz uchun munosib shart- sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Shu jihatdan ham ta`lim va maorifni yuksaltirish, milliy istiqlol g`oyasini o`zida mujassam etgan yangi avlodni voyaga yetkazish va davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh kasb egalarini shakllantirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kasb- maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma`lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini amaliy ko`nikma va malakalarni egallagan shaxsning jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlar asosida shug`ullanadigan mehnat faoliyat turi.

O`qitish va tarbiyalash maqsadida boshlang`ich sinf o`quvchilariga ta`sir qiluvchi pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

- bolalarni sevish;
- pedagogik faoliyatga qiziqish;
- o`quvchilar jamoasini tashkil qila olish;
- kichik yoshdagi o`quvchilar bilan ishlashga intilish;
- nutqning ravon bo`lishi;
- talabchanlik.



Kasblar soni kun sayin ko`payib boryapti, ammo to`g`ri kasb tanlash oson ish emas. Kasb tanlash ma`lum bir ma`noda inson hayotini barpo etish, uning individual o`ziga xosliklari va qobiliyatlari, qiziqishlariga to`liq mos keladigan kasblarni topish bilan shug`ullanadi. Bunda boshlang`ich sinf o`qituvchisining vazifasi kichik maktab yoshidagi o`quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirib borishdan iborat. Boshlang`ich sinf o`qituvchisi bu vazifani dars mobaynida darsliklar orqali yoki darsdan tashqari mashg`ulotlarda bajarishi mumkin.

Kasb tanlashga yo`naltirishning uslub va vositalari (sinfda va sinfdan tashqari mashg`ulotlarda):

- kasb-hunarga yo`naltirish haqida she`r, hikoya, topishmoq, maqol, suhbat kabilardan foydalanish;
- kasbga yo`naltirish mavzusida prezentatsiya, video rolik namoyish etish;
- kasb tanlashga oid rivojlantiruvchi kasbiy o`yinlar, rolli o`yinlarni o`tkazish;
- kasbga oid tadbir, konkurs, to`garak, ekskursiya va kasb vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish.

Ekskursiya o`quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish hamda unga yo`naltirish ishini eng samarali guruhviy shakllaridan biri bo`lib, u o`quvchilar ongida kasblar haqida to`g`ri tasavvur hosil qilishga yordam berish orqali ularda ommaviy ishchi kasblarga qiziqish uyg`otishiga ko`maklashadi. Ekskursiyalar maktab ichki hududida yoki maktabdan tashqari joylarda o`tkazilishi mumkin.

To`garaklar butun o`quv yili davomida faoliyat yuritishi bilan ahamiyatlidir. To`garakning vazifasi amaliy ish jarayonida kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda kasblarga nisbatan qiziqish uyg`ota olish, ulardagi moyilliklarni aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan.

Kasblar 5 ta yirik guruhlarga ajraladi.

## Kasb tiplari

Odam-odam	Odam-texnika	Odam-badiiy obraz	Odam-belgilar tizimi	Odam-tabiat
<ul style="list-style-type: none"> <li>❖ shifokor</li> <li>❖ o'qituvchi</li> <li>❖ sotuvchi</li> <li>❖ hamshira</li> <li>❖ sartarosh</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>❖ haydovchi</li> <li>❖ chilangar</li> <li>❖ arxitektor</li> <li>❖ temirchi</li> <li>❖ tokar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>❖ aktrisa</li> <li>❖ artist</li> <li>❖ rassom</li> <li>❖ bo'yoqchi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>❖ hisobchi</li> <li>❖ kassir</li> <li>❖ operator</li> <li>❖ korrektor</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>❖ chorvador</li> <li>❖ dehqon</li> <li>❖ asalarichi</li> <li>❖ bog'bon</li> <li>❖ o'rmonchi</li> </ul>

**Xulosa qilib aytadigan bo'lsak**, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish davomida ularga ommaviy- zamonaviy kasblar haqida ma'lumotlar berib borishi ularning kasb tanlash imkoniyatlarini ko'paytiradi. Bu esa, o'sib kelayotgan yosh avlodning to'g'ri kasb tanlashi va kelgusida jamiyatimizda o'zlarining munosib o'rnini topishida ko'mak bo'la oladi.

**References:**

1. Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida // "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-til 6-sentyabr.
2. Shodiyev.N Fayziyev M. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand-2023, 201 bet.
3. Abdurashid Abdumannobovich Turg'unov. "Kasb- hunarga yo'naltirish". O'quv qo'llanma. Toshkent-2019.
4. Jo'raev.R.D. Uzluksiz ta'lim tizimida kasb-hunarga yo'naltirish va shaxsning kasbiy o'zligini anglash muommolari.-T.: O'qituvchi, 2002.-135b
5. www.google.com
6. Matyoqubovna, A. R. (2022). YOSHLARNI TO'G'RI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISH IJTIMOY VOQELIK SIFATIDA. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI, 2(11), 436-438.